
XALQIMIZ SALOMATLIGI UCHUN

↳Rishtoni tumani “Oqtomir” mahalla fuqarolar yig’inidagi qishloq vrachlik punktida chuqurlashtirilgan tibbiy ko’rik o’tkazilib, unda 2-sektor hududidagi 18 ta mahalla fuqarolar yig’inida istiqomat qiluvchi 230 nafardan ziyod fuqarolar ishtiroki ta’minlandi.

????Unda kardiolog, okulist, nevropatolog, xirurg, UZI shifokori, ayollar va bolalar shifokori kabi turli yo’nalishdagi tibbiyot mutaxassislari jalb etildi. Tibbiy ko’rikda viloyat hokimi o’rinbosari, oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig’i Komila Kavlonova hamda tuman hokimi o’rinbosari, oila va xotin-qizlar bo’limi boshlig’i M. Bekmirzaevalar ishtirok etishib, jarayon bilan yaqindan tanishdi. ➤ - Ko’rik jarayonida hudud aholisi o’rtasida, jumladan “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”da turgan xotin-qizlar va farzandlarimizga sog’lom turmush tarzini keng targ’ib qilish, kasalliklarni boshlanish davrida aniqlash va davolash choralarini ko’rish, erta tug’ruq va bolalar o’limini oldini olish kabi qator masalalarni hal etishga qaratilgan. Bu borada tuman 2-sektor rahbari va tuman tibbiyot bo’limi mutasaddilariga minnatdorchilik bildiramiz,-deydi viloyat hokimi o’rinbosari, oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig’i Komila Kavlonova.

2022-09-30 05:39:28